

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

Farg‘ona jamoat salomatligi

tibbiyot instituti rektori

A. Sidikov

2021 yil

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI
TIBBIYOT INSTITUTINING
ILMIY, IJODIY TO‘GARAKLARI
NIZOMI**

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy,
ijodiy to'garaklarning
NIZOMI**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Nizom O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan vazifalar hamda "O'zbekiston Respublikasida 2021 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi"ning ijrosini amalga oshirish yuzasidan Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy, ijodiy to'garaklarni tashkillashtirish tartibi va shartlarini belgilaydi.

2. To'garaklar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida yuritadi.

3. To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish bo'yicha davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar va rejalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o'rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy ishlarni maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy va ilmiy-uslubiy ijodiy uyushmasi hisoblanadi.

4. To'garaklar talaba-yoshlarning optimal yechimlarini izlab topish ko'nikmalarini va o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan qiziqishlari bir xil bo'lgan bir guruh talabalarning ma'lum fan bo'yicha tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan ularning bilim va mahoratini oshirish uchun xizmat qiladi.

5. To'garaklar Nizomi, ilmiy rahbari hamda uning tarkibi institut Ilmiy Kengashida ko'rib chiqiladi va institut rektori buyrug'i bilan tasdiqlanib, faoliyatga kiritiladi.

– To'garaklar - bilim va ta'lim sohalari hamda mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-ijodiy ishlarni maqsadli va tizimli asosda amalga oshirish uchun talaba-yoshlar qiziqishiga, xohishiga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qiladi, o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar tashkil qilinadi.

II. TO'GARAKLARNING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

6. To'garaklarning asosiy maqsadi - talaba-yoshlarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish, bilim olishga va yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirishga to'liq safarbar etish hamda ularni har tomonlama hayotga tayyorlash, mamlakatimizda demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal eta oladigan yuksak ma'naviyatli, global fikrlaydigan, global mutasaddilik va kasbiy mahorati shakllangan oliy ma'lumotli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun ijodkor iste'dodli yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirish va talabalarning

bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashdir.

III. TO'GARAKLARNING ASOSIY VAZIFALARI

7. Milliy g'oya, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni amalda qaror toptirish, inson huquqlari va qadr-qimmatini ulug'lovchi, Vatanga sadoqatli, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan keng ko'lamlil ilmiy, ijodiy ishlarni olib borish:

- talaba-yoshlarni hayotga maqsad va ishonch bilan yashashga tayyorlash, ularni eng yuksak qadriyat sifatida vaqtini qadrlash va undan samarali foydalanishga o'rgatish;
- talaba-yoshlarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish;
- talaba-yoshlar taraqqiyotida ma'naviyat olamining beqiyos ahamiyatini singdirish;
- ma'naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida tushunchalar berish;
- yoshlar ongi va qalbini loqaydlik, befarqlik kabi illatlardan forig' etish;
- talaba-yoshlarda barcha ko'rinishdagi salbiy holatlarga qarshi kurashuvchanlik ruhini yaratish va rivojlantirish;
- yoshlar orasida vatanparvarlik, milliy g'urur, ma'naviy teranlik va tashabbuskorlik, ilmiy-ijodiy iste'dod kabi fazilatlarni qaror toptirish hamda to'plangan boy badiiy-ijodiy va ilmiy-texnik salohiyatni yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish;
- yoshlarning ongi va siyosiy madaniyati darajasini hamda ilmiy salohiyatini yuksaltirish asosida ularning demokratik jarayonlar kirishuviga ko'maklashish.

8. Global fikrlaydigan yosh mutaxassislarini tayyorlash sohasida:

- talaba-yoshlarni mustaqil bilim olish jarayonida aqliy quvvatlari va vaqtlarini samarali sarflashga o'rgatish;
- milliy qadriyatni yaxshi bilgan va ularni e'zozlagan hamda jamiyat ichida qabul qilingan axloq va odob normalariga rioya qilishga o'rgatish;
- mehnatsevar inson, degan ijtimoiy sifatni shakllantirish;
- milliy g'urur, ya'ni yashab turgan mamlakatining tarixini, ma'naviyat va madaniyatini bilish, uning olimu fozillari va qahramonlari bilan faxrlanuvchi hamda shu mamlakatlar ravnaqiga o'z hissasini faol qo'shib kelayotgan kishi qalbidagi umuminsoniy g'urur negizida paydo bo'lgan ruhiy kayfiyatni shakllantirish;
- yoshlarda mustaqil fikr, fuqarolik pozitsiyasini namoyish qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirib borishga ko'maklashish;
- talaba-yoshlarda dunyo miqyosidagi hamda mamlakatimizdagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatni shakllantirish, faol fuqarolik va vatanparvarlik pozitsiyasini kamol toptirish;
- yoshlarning ongi va siyosiy madaniyati darajasini, malakaviy mahorat hamda ilmiy salohiyatini yuksaltirish;

- globalashuv - hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, mafkura poligonlari jarayonlariga ogohlik va hushyorlikni kuchaytirish;
- talaba-yoshlarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi tashabbuskorlik, ijodkor va bunyodkor g'oyalarni ruhida tarbiyalash;
- talabalarni ma'naviy kamol toptirish, bo'sh vaqtini fikr-mulohazalarga, baxs-munozaralarga chaqiruvchi, ijodiy faoliyatni kuchaytiruvchi g'oyalarni ishlab chiqish va targ'ib qilish.

9. Kasbiy mahorati shakllangan oliy ma'lumotli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirish:

- ijodkor yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish, ularni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish;
- talabalarning bo'sh vaqtini maqsadli va mazmunli tashkil etish hamda ularning amaliy-ijodiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlab rivojlantirish;
- ilmiy-ijodiy izlanish olib borayotgan bakalavrlarga respublikadagi ijodiy jamoalar, ilmiy markazlar, fondlar hamda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga moddiy va ma'naviy yordamlashish;
- ilmiy va ijodiy izlanishlar natijalarini rag'batlantirish va keng ko'lamda targ'ib qilish maqsadida to'garak a'zolarining ijodiy ixtirolari bilan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, ko'rgazmalar va ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishiga ko'maklashish;
- to'garak a'zolarining redaksiyalar, ijodiy uyushmalar, tashkilotlar, fanlar akademiyasining ilmiy-tekshirish institutlari va ilmiy ishlab chiqarish markazlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda izlanishlar olib borishlari uchun imkoniyat yaratish;
- klinik ordinator, magistr va iqtidorli bakalavrlarning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida, ilmiy-ijodiy natijalarini tijoratlashtirish va qo'shimcha ish joylarini topishiga ko'maklashish;
- xalqaro hamkorlikni tashkil etishda Internet orqali guruhning ish faoliyati va yutuqlarini targ'ib etuvchi Web-sahifa ochib, muntazam ravishda ilmiy-ijodiy faoliyatlarini yoritib borish;
- to'garakda ijodiy, innovatsion muhitni yaratish va ushbu jarayonda faol qatnashish.

IV. TO'GARAKLARNING HUQUQLARI

10. Institutda bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalarda qatnashish, turli ilmiy-amaliy anjumanlar, ko'rgazmalar, mushoira, ijodiy uchrashuvlar, tadbirlar majmuasini uyushtirish va o'tkazishda ko'maklashish.

11. Qonunda belgilangan tartibda reklama ishlarini amalga oshirish va o'z faoliyatida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.

12. Yoshlar orasida madaniy-ma'rifiy, ilmiy-amaliy ishlarni olib borish va to'garak faoliyati haqida axborotni keng targ'ib qilish.

13. Respublikamizdagi OTMlar, ilmiy markazlar, zamonaviy korxonalar va tashkilotlar hamda jamg'armalar bilan ilmiy-ijodiy hamkorliklar o'rnatish.

14. Talabalarni to'garak ishlariga keng jalb qilish va qiziqtirish maqsadida institut Ilmiy Kengashi qarori asosida to'garaklarga qatnashuvchi talabalar orasida tanlov tashkil qilish mumkin.

15. To'garaklar mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda buyurtmachi korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda talabalar ota-onalari hisobidan ta'lim olayotgan yo'nalishlarga turdosh ta'lim yo'nalishlaridan chuqur bilim va ko'nikma berish maqsadida ham tashkil etilishi mumkin.

V. TO'GARAKLARGA A'ZOLIK

16. Mazkur Nizom qoida va talablari hamda mutaxassislik to'garaklarining maqsad va vazifalarini ma'qullagan, millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, ilmiy-ijodiy faoliyatiga o'z bilimi va qobiliyati bilan qiziqqan barcha klinik ordinator, magistr va bakalavriat talabalari to'garakka a'zo bo'lishlari mumkin.

17. To'garaklar turini tanlash va qatnashish talabalar uchun ixtiyoriy bo'lib, uning to'garaklarga ishtirok etish haqidagi og'zaki bildirishi yetarlidir.

VI. TO'GARAK A'ZOLARINING HUQUQ VA BURCHLARI

18. To'garak faoliyatiga doir barcha tashkiliy-amaliy masalalarning hal qilinishida teng huquqlik asosida ishtirok etish, to'garakning Nizomiga rioya qilish hamda uning maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etish.

19. Nizomga to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritish borasida takliflar va tavsiyalar bilan chiqish.

20. Kafedralarda to'garaklar uchun maxsus jixozlangan auditoriyalar, o'quv-texnologik jihozlar, axborot resurs markazi jamg'armasidan va jihozlaridan foydalanish.

21. Talabalarning jamoat ishlarida ishtirok etishi va dam olishlari e'tiborga olinib, to'garak rahbari taqdimnomasiga muvofiq tuzilgan jadval asosida to'garakda qatnashish va mashg'ulotlarni sababsiz qoldirmasligi.

22. To'garak mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan barcha o'quv qurollarini olib kelish va xavfsizlik texnikasi hamda sanitar-gigienik me'yorlariga rioya qilish.

VII. TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISH VA RAHBARLIK QILISH

23. To'garak fakul'tet dekani tavsiyasi asosida rektor buyrug'i bilan tashkil etiladi. Unga tajribali professor-o'qituvchilar rahbarlik qiladi va yo'nalishlar bo'yicha mas'ul prorektorlar nazorati ostida fakul'tet dekani tomonidan boshqariladi hamda institut Ilmiy Kengashiga muntazam hisobot beradi.

24. To'garak rahbarining vakolatlari:

- ilmiy va ijodiy to'garak Nizomiga o'zgartirishlar va to'ldirishlar kiritish tashabbusi bilan chiqadi;
- to'garak a'zolarining sonini (ishtirokchilar soni 5 nafardan kam bo'lmasligi kerak) belgilaydi;
- to'garak vakolatlarini va uning asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi;

- to'g'arak a'zolari va yo'nalishlar bo'yicha to'g'arak a'zolari tomonidan taqdim etilgan dasturiy hujjat, loyiha va kontseptsiyalarni muhokama qiladi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi;
- to'g'arak faoliyatini takomillashtirishga doir turli taklif va tashabbuslar bilan chiqadi.

25. To'g'arak rahbarlarida quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lishi lozim:

- institutda to'g'araklarni tashkil qilish Nizomi;
- to'g'arak dasturini tuzish bo'yicha uslubiy tavsiyalar;
- fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan to'g'arakning yillik ish rejasi;
- ishtirokchilarning davomatini qayd qilish jurnali;
- to'g'arak ish jadvali;
- to'g'arak ishtirokchilarning ro'yxati.

26. To'g'arak yig'ilishlarini o'tkazish uning hususiyatidan kelib chiqib, belgilanadi.

VIII. TO'G'ARAKLAR FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

27. To'g'arak faoliyatini tashkil qilish va uni yuritish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar o'rnatilgan tartibda institutning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

IX. TO'G'ARAK FAOLIYATINI TUGATISH TARTIBI

28. To'g'arak faoliyati institutning «Ilmiy Kengash» qarori bilan tugatiladi.


Kiritildi



N. Gulamova


Kelishildi:

Ilmiy ishlar, innovatsiyalar
va ilmiy pedagogik kadrlar
tayyorlash bo'lim boshlig'i




M. Kadirova

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



M. Botirov

Ishlar boshqarmasi boshlig'i
Tibbiy profilaktika va
jamoat salomatligi
fakulteti dekani



E. Djorayev

Davolash ishi fakulteti dekani




D. Ten

Xalqaro fakulteti dekani



N. Xaydarova

Katta yurist konsultant



A. Axmedov